

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

TARIX

Sh.Hakimova	
O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari	113
J.Bo'tayev	
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar.....	118
I.Bohodirov, B.Jurayev	
Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim	123
A.Yuldashev	
Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
B.Ataxanov	
Mustaqillikning ilk yillarda o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlарining o'ziga xos xususiyatlari	136
Sh.Husanova	
Qadimgi Farg'onanening samoviy tulporlari	140
N.Komilov	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinnbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
G'.Raxmonov	
Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishniyaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
O.Abdunosirova	
Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida	155
Z.Abdullayev	
Turkistonda mol-mulk musodarasi va rekvizisiya	158
S.Istrolova, G.Karimova	
Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

ADABIYOTSHUNOSLIK

Z.Tashtemirova, E.Gizdulin	
Lirk she'riyatning turga oid xususiyatlari	167
N.Sidikova	
Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari	173
A.Eshdavlatova	
Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandard isyoni ifodasi	177
J. Xalliyev	
Ogahiy tarixiy va lirk asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik	182
E.Qurbanova	
Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot	186

TILSHUNOSLIK

K.Yusupova	
Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
Yu.Shuxratova, A.Mamajonov	
O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
A.Yuldashev	
So'z yasalishining kognitiv aspekti	198
X.Dusmatov	
O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
N.Umarova, D.Madazizova	
Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
G.Majidova	
Til darslarida madaniyatni qamrab olish	215
L.Yo'idosheva	
Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	220
N.Mamajonova	
Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish	224
G.Isakova	
"Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
Z.Alimova	
Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida	233
И.Порубай	
Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi	238

RAUF PARFI IJODIDA ERKIN RUHNING NOSTANDART ISYONI IFODASI**A NON-STANDARD REBELLION OF THE FREE SPIRIT IN THE WORK OF RAUF PARFI****НЕСТАНДАРТНЫЙ БУНТ СВОБОДНОГО ДУХА В РАБОТЕ РАУФА ПАРФИ****Eshdavlatova Aziza Ubaydulla qizi****Eshdavlatova Aziza Ubaydulla qizi**

– Qarshi davlat universiteti filologiya fakulteti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti.

Annotatsiya

Maqolada shoir Rauf Parfining ijodiga qisqacha nazar tashlangan bo'lib, uning sonet va xokkulari tahlil etilgan. o'zbek adabiyoti va xorij adabiyoti namoyondalarining Rauf Parfining ijodiga munosabatlari tahlil qilindi va tahlil jarayonida sonet va xokkular misollar orqali she'rlarning shakliy semantik xususiyatlari ochib berilgan. Shoir Rauf Parfining ish daftarlari keltirilgan "uchlik" sarlavhasi bilan xokku deb ataluvchi she'rning bir turi haqida mulohaza yuritilgan. Xokkuda tabiat va tabiat orqali inson kayfiyatni aks ettiriladi. Ushbu maqolada sonnet tushunchasi va u haqidagi shoirning fikrlar bayon etilgan. sonetda metaforaning go'zal namunalari bilan birga shoir ruhiyatining ajib to'lqinlari ham latif ifoda etilgan. Ushbu maqolada jahon adabiyoti namoyondalarining ijodiga nazar tashlanib, Rauf Parfi ijodi bilan taqqoslanadi, hamda ijodiy ishlardagi o'ziga xosliklar va farqlar o'rganilgan.

Аннотация

В статье дается краткий обзор творчества поэта Рауфа Парфи, анализируются его сонеты и хокку. проанализировано отношение представителей узбекской и зарубежной литературы к произведениям Рауфа Парфи, а в процессе анализа на примерах сонетов и хокку выявлены формальные семантические особенности стихотворений. Название «троица» в произведениях поэта Рауфа Парфи относится к типу стихотворения под названием хокку. в хокку настроение человека отражается через природу и природу. в данной статье описывается понятие сонета и мысли поэта о нем. сонет, наряду с прекрасными примерами метафоры, тонко выражает чудесные волны психики поэта. В данной статье рассматривается произведение мировой литературы, сравнивается с творчеством Рауфа Парфи, исследуются особенности и различия в его творчестве.

Abstract

The article gives a brief overview of the work of the poet Rauf Parfi and analyzes his sonnets and hokku. the attitude of the representatives of Uzbek and foreign literature to the works of Rauf Parfi was analyzed, and in the process of analysis the formal semantic features of the poems were revealed through the examples of sonnets and hokku. The title of the "trinity" in the works of the poet Rauf Parfi refers to a type of poem called hokku. in hokku the human mood is reflected through nature and nature. this article describes the concept of the sonnet and the poet's thoughts on it. the sonnet, along with beautiful examples of metaphor, subtly expresses the wonderful waves of the poet's psyche. This article looks at the work of world literature, compares it with the work of Rauf Parfi, and explores the peculiarities and differences in his creative work.

Kalit so'zlar: хокку, Рауф Парфи, Федор Достоевский, учлик, сонет, Рахимjon Rahmat, туш, фикр пластикаси.

Ключевые слова: хокку, Рауф Парфи, Федор Достоевский, троица, сонет, Рахимжон Рахмат, сон, пластичность мысли.

Keywords: hokku, Rauf Parfi, Feodor Dostoevsky, trinity, sonnet, Rahimjon Rahmat, dream, thought plasticity.

KIRISH

Biz shoirlar va ularning ijodi haqida gapirganimizda she'rlarning qanday yozilgani, shoirning nimadan yoki kimdan ilhomlanganini bilishni xohlaymiz. Aslida bu ham bir nisbiy qarash.

Shunday shoirlar bor, ularning ko'ngli qizg'aldoqning bargidek titroq va nozik, ular hayotning eng latif lahzalarini tuta oladi hamda misralarga ko'chiradi. Oddiy odamlar kabi yashasa-da, ilhom daryosining o'zanini vaqt-i-vaqt bilan o'zgartirib, ochib turadi.

Yana shunday shoirlar borki, Yaratuvchining cheksiz hikmati ila o'zgacha bir "hol" bilan dunyoga keladilar. Bunday shoirlar qalbidagi nozik hislarni she'rga solmaydilar, aksincha she'rga aylangan qalbini ifodalab berishga so'z axtaradilar. Ana shunday qalbi, shuuri, qon-yu joni she'rdan iborat bo'lgan shoirlardan biri Rauf Parfidir.

Buyuk yozuvchilardan biri Frans Kafka "Menda adabiy qiziqishlar yo'q, men o'zim adabiyotdan iboratman" degan edi do'stlaridan biriga. Rauf Parfi ham o'z ijodi bilan tom ma'noda F.Kafkaning

so'zlarini aytib ketgan deya olamiz. Shoirning she'rлarini o'qir ekanmiz, uning she'rлari ma'lum qoidalarga bo'ysunmasligi, hech bir shakl, hech bir qolibni tan olmasligi bilan ajralib turishini ko'ramiz.

Rauf Parfi o'tgan asrning 60-yillarida adabiyotimizga Cho'lpion ijodiga "oshiqlik" bilan kirib keldi. Shu boisdan ham shoirning dastlabki she'rлarida tuyg'ular garmoniyasi yomg'ir kabi mayin, tongi shudring kabi toza hislar bilan namoyon bo'lgan. 80-yillardan boshlab shoirning ilhom o'zani kattalashdi. Ijod ummonining to'lqinlari qalb qirg'og'idan tosha boshladi. Bu toshayotgan to'lqinlar erkin, bezovta ruhning nostandard isyoni ifodasi edi. Endi shoirning she'rлarida falsafiy intelektual yo'naliш ustuvorlik qila boshladi. O'rинli savol tug'iladi, nega shoirning ruhida bezovtalik, isyon bor edi?! Buning sababini ba'zi adabiyotshunoslar erki toptalgan aziz makon – ona Turkiston qayg'usi deb izohlaydilar. Yana ba'zilari shoirning ruhiy olamini bir tilsimga, ijodkorona telbalikka mengzaydilar. O'yaylmizki, bu har ikki jihat o'rинli, har ikkisini-da, inkor etib yohud muqoyosa qilib bo'lmaydi. Bizning nazdimizcha, shoirning har bir she'r'i mohir rassomning san'at asari kabi inson qalbining bir lahzalik yohud yillarcha to'plangan tug'yonlarini aks ettiradi. Har bir she'r erk istayotgan ruhning tartibsiz hikoyasidir. Atoqli adib Asqad Muxtorning Rauf Parfi ijodiga bergen dastlabki ta'riflari shoirning ijodini anglashga urinayotganlar uchun ma'lum bir yo'naliш beradi: "Rauf Parfi har bir she'r'ida odamning murakkab ruhiy dunyosidagi biron holatni tutib olib, suratlaydi. Bu – qiyin ijodiy protsess. Lekin Raufning satrlarida bu qiyinalish bilinmaydi, ular go'yo oson ko'chgandek ravon, tabiiy, samimi. Bu she'rлarda deklarativlik ham, nasihat ham, illyustratsiya ham, didaktiv yalang'ochlik ham yo'q. Ular shoirning zavq dunyosidan tug'ilgan. Agar bu dunyo tobora kengaysa, to'lqin ursa, insoniy ehtiros va grajdaniш hislari bilan yanada boyisa, Rauf Parfi, shubhasiz, hassos shoir bo'ladi"[1,137].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rauf Parfining butun o'zligi she'rдан iborat edi va shu o'zlikni ifoda etishga doim munosib so'z qidirdi. Tafakkur mahzanidan topgan so'zlarini turli shakkarda ifoda etdi. "Rauf Parfi hali yosh shoir "tamg'a"idan qutulmay turib, she'riyatimizda shakliy yangiliklar qilib ulgurgandi. A-b-a-b-a tartib-shaklidagi she'rлari, yapon she'riyatidan ilhom olgan eksperimentlari – xokku-uchchlilari, ayniqsa, san'atkorona sonetlari shunday deyishga asos beradi. To'g'ri, shoir ijodida bu yo'naliшlarning barchasi ham muvaffaqiyatlち chiqmadi. Biroq keyingi davr she'riyatini yaratajak avlod badiiy tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatdi"[2,3].

Bundan tashqari Rauf Parfi birinchilardan bo'lib, mumtoz Yapon sheriysi namunalarini tarjima qilgan. Adib Xurshid Davronning ma'lumot berishicha, shoir 1961- yilda "Yapon xokkulari" tarjimasiga qo'l урган.

Shoirning ish daftarlardan birida "Uchlik" sarlavhasi bilan quyidagi ma'lumotlar berilgan: "Yapon poeziyasida xokku deb ataluvchi she'ning bir turi bo'lib, qisqaligi va go'zalligi bilan o'ziga xosdir. Xokkuda tabiat va tabiat orqali inson kayfiyati aks ettiriladi. Xokku uch misradan tashkil topgan qofiyasiz she'rdir. Birinchi misra besh bo'g'in, ikkinchi misra yetti bo'g'in, uchinchi misra besh bo'g'in – hammasi o'n yetti bo'g'in bo'lib, bu shakl qat'iy emas.

Xokku yozish katta mazmunni oz so'z bilan ifoda etish san'atidir.

Xokku tasviriy san'atga yaqindir. Rassomlar xokkuda tasvirlangan ifodani rasmida aks ettirishi yoki shoir rassom chizgan suratga qarab xokku yozishi mumkin. Shamol, bulbul navosi, kakku ovozi, umuman, har bir tovushning o'z ma'nosini bor va bu har xil kayfiyat va hissiyot uyg'otadi. E'tiborsiz o'qilgan uchlik o'zining asl ma'nosidan mahrumadir. [3].

Rauf Parfi ijodini tadqiqotchisi Olim Oltinbek ta'kidlaganidek, "Rauf Parfi – milliy adabiyotimizdagи mana shunday she'riyat bilan birinchilardan oshno bo'lgan va boshqalarni ham oshno etgan shoir. Uning: "Xokku yozish katta mazmunni oz so'zi bilan ifoda etish san'atidir", deyishi ham xokku qonuniyatini yaxshigina o'zlashtirganidan dalolat beradi..."

1. Yulduzlarning rahmi keladi,
Oy mo'ltilrab qaraydi menga,
Yo'larimni silaydi yog'och.
2. Sochimni yuladi izg'irin,
Qorlar pichirlaydi boshimda,
Ko'zimga sanchilur ismingiz.
3. Ichimdan dunyolar kechdi,
Ichimda titraydi zaminlar.
Oylar kuydi Porladi Quyosh.

ADABIYOTSHUNOSLIK

4. Baxtsiz shahar yupun uxlaydi,
Changlar yutib uxlar boyaqish,
Kir-chir, sochlari to'zg'igan bola.
5. So'z meni taqib qilar,
Chirqiratar o'yib ko'ksimni,
Ashaddiy So'z, shafqatsiz So'z.

(Rauf Parfining 1994-yilgi ish daftaridan).

Ushbu uchliklarni o'qiguvchi har bir shaxs o'z tafakkur darchasidan qarab, unda ko'rganlarini his etmoqqa harakat qiladi. Shoирning siyemosida o'z Robbiga iltijo etayotgan bir hokisorni ko'ramiz. Tun...! Bu hokisor banda yuzini Jannat eshigiga qo'yib, sajda etmoqda, shu sabab uning yuzlarini yog'och silaydi, Oy mo'liragan nigohlari bilan uning boshini silagandek bo'ladi. Nafs - izg'irin bo'lib, uning sochlari yuladi, ammo u faqat nafsning hukmida emas. Uning qalbida yaxshi niyatlar – oppoq qordek farishtalar bor. Inson psixologiyasi doimo qarama-qarshiliklar, ichki ziddiyatlar og'ushida bo'ladi. Shoир o'zligini (bu orqali Yaratguvchini) topish yo'lidagi qalb titroqlarini ifoda etish barobarida kuygan lahzalarini, oyalarini ham eslaydi. Yaratguvchining ishqini anglaganida esa shoирning titroq qalbida "quyosh porlaydi". Endi uning ko'ziga o'zi turgan shahar baxtsiz, g'arib bo'lib ko'rindi. Undagi insonlar esa ishqisz – yupun, ularning qalbi – kir, changlarga to'la, chunki poklaguvchi ishq yo'q. Ammo shoир bu shaharni "tushunadi", avaylaydi – sochlari to'zg'igan boladek ko'radi. Shu o'rinda shakl semantikasiga ham urg'u berilmoga. Muallif 4 – uchlikda shahar tasvirini "baxtsiz, yupun, sochlari to'zg'igan bola" shaklida ifodalaydi. Bevosita o'quvchining tasavvurida shakllangan bola – shoирning o'zidek bo'lib jonlanadi. Endi bu "bola"ni so'z taqib etadi. Balki, bu so'z kirlangan qalbning tubida qolib ketgan vijdon yohud iymondir. U esa shafqatsizlarcha, shoир ko'ksini o'ymoqda. Xalovat topmoq uchun kirlangan, ishq – yupun qalbni eng toza vijdona bilan poklamoq zarur.

"Asarlarda qanday ulug' g'oyalar yashringan bo'lmasin, agar ularning shakli zaif bo'lsa, natija yo'qqa chiqadi", -deydi ulug' Feodor Dostoyevskiy. Chunki asardagi juda ko'p oshkor, pinhon g'oya, histuyg'u, falsafa shakl-ta'sir orqali qalbdan qalbga ko'chadi.

Rauf Parfi O'zturk ham eng ko'p pinhoni g'oyalariga kutilmagan shakllar topadi, balki ular ichidan shu tariqa quyma, noodatiy shakllarda tobilanadi, tovlanadi.

Shoir ijodida uchraxdigan eng ko'p noan'anaviy shakl -uchliklar majmui-halqasidan iborat yaxlit she'rlar. Mana, shulardan biri, 1994 - yilda yozilgan.

1. Mana, zahar, hozir ichaman,
Ketaman men sizning hayotingizdan,
Sevaman deb sizni aldadim.

Aslida hech kim hech kimni alday olmaydi, u faqat o'zini aldashi, chalg'itishi, adashtirishigina mumkin. Shuni anglagan "Oshiq" "Zahar" ichaman deydi o'ziga - o'zi. Bu - uning o'z yolg'oniga hukmi" [4,639].

2. Men yig'ladim tushimda,
To'yib – to'yib yig'ladim,
Yoningizga endi bormayman.

Bu uchlik shoирning poklik unsuri bo'lib anglashiladi. O'z aldovidan o'zi andisha qilgan qalbning tozarish yo'li – balki mavhum tushlar olamining ko'z yosh yo'lidi. She'r va tush borasida adib Rahimjon Rahmatning yondashuvi esa quyidagicha: "She'r bilan tushning orasida g'alati o'xshashlik mavjud. Har ikkalasida ham makon va zamon, shakl va mazmunda bir-biriga begona bo'lgan narsa – hodisalar o'zaro ajib uyg'unlikka erishib, bir maqsad atrofida birlashadi. She'r yozish ham tush ko'rish kabi odamning aql va irodasiga bo'ysunmaydi. She'r bilan tush ko'rish bir-biriga o'xshar ekan, demak, shoир ham muayyan ma'noda borliqqa nisbatan uxlayotgan odamdir. She'r – shoирning uyg'oq holda ko'rgan tushi. Uxlayotgan odam farishtaga tenglashtiriladi, chunki u birovga ozor bermaydi, ko'ksidagi tama iti ham uyquda. Bundan shunday xulosa chiqadiki, shoир uyg'oq holida ham farishta ekan. «Farishtasiz joy» degan iboraning mazmunini hamma biladi. Chinakam shoirlari yo'q xalqni men «farishtasiz xalq» degim keladi. Shukrki, biz «farishtasiz xalq» emasmiz" [5.128].

Sonet (ital. sonetto) — 14 misradan iborat turg'un she'riy shakl. Sonet qat'iy qonun—qoidalar asosida yaratiladi. U 4 banddan iborat bo'lib, 1 va 2 bandlar 4 misradan (katren), 3 va 4 bandlar 3 misradan (terset) tashkil topadi. Eng muhimi — qofiyalar to'la va jarangdor bo'lishi lozim. Sonet faqat shaklan emas, mazmunan ham shunday talablarga javob berishi kerak. Sonet o'zbek she'riyatida 30 - yillarda paydo bo'ldi. Usmon Nosir, Barot Boyqobilov, Rauf Parfi va boshqalar sonet yozganlar. G'arb sonetshunosligi badiiy tajribalarni ham shakliy, ham mazmuniy yo'sinda tashkil eta oldi, davr ijtimoiy muammolarini ham o'ziga xos tarzda ifodalab keldi. O'zbek milliy sonetnavisligida ushbu masalalar

yanada kengroq aks ettirildi, shuningdek, hayotning deyarli barcha muammolarini qamrab olish va tasvirlashga intilish sezildi. Sonetning an'anaviy vazifasiga o'zgacha estetik yuk baxsh etildi. Rauf Parfi she'riyatidagi yangi shakliy izlanishlar ham bevosita sonetlar bilan bog'liq. "Rauf Parfi zamondoshlarining bugungi ruhiy olamini, orzu—armonini ifodalashda tinimsiz izlanayotgan, yangi—yangi shakl va usullarni sinab ko'rib, ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritayotgan shoir. Bugungi kunda sarbast vazn yoshlari poeziyasida tobora ko'proq o'r'in olib borayotgan ekan, bunda Raufning ham hissasi bor", – deya ta'kidlab o'tadi Begali Qosimov.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Ma'lumki, jahon estetikasi tarixida Sharq she'riyati ramzlar asosiga qurilgan majoziy badiiy tafakkur madaniyati, deb tasniflanadi. Gegel "Estetika" asarining "Eposning mohiyatan farqli belgilari" bobida (XIV jild, 275 - bet) Sharq eposi simvolik tipdagi, ramzlar asosida yuzaga kelgan, deya ta'rif beradi. To'g'ri, majoziylikni yolg'iz bir xalq she'riyatiga xos, deya cheklash mumkin emas. U turli shakllarda barcha xalqlar she'riyatida mavjud. Shu boisdan Rauf Parfi: "Biz biladigan barcha tog'larning cho'qqlari bor. Bunda metafora eng baland – bosh figura", deyishi beziz emas. U she'riyatimizning o'ziga xosligini, o'zgarish jarayonida kechgan xususiyatlarni belgilashda unga yopishtirilgan turli xil zo'rma - zo'raki yorliqlarni, sun'iy alomatlarni keskin rad etadi. Jahon she'riy tafakkurini jiddiy o'zlashtirgan va o'z ijodiga muvaffaqiyatli tadbiq eta olgan shoir metaforaning go'zal namunalarini yaratdi. Bu borada yuzlab misollar keltirishimiz mumkin, ammo biz "Daryo mavjlariga yozilmish g'azal" deb boshlanadigan go'zal sonetdan bir parcha keltirish bilan cheklanamiz:

Daryo mavjlariga yozilmish g'azal,

Maysalar egilib o'qiydir kitob.

Shodlanib xandalar otar bir lahza,

Bir lahza oh tortib qo'yadi oftob"[6, 150].

Ushbu sonet 1963-yilda yozilgan. Sonetda metaforaning go'zal namunalari bilan birga shoir ruhiyatining ajib to'lqinlari ham latif ifoda etilgan. Misralarda oftobning goh shodlanib, goh oh tortishini, inson psixologiyasidagi kayfiyat evrilishlariga mengzash mumkin.

Qamishlar shivirlar daryo tomonda,

Ko'qda oq bulutlar kezar bemajol.

Bir tirk nafosat borliq, jahonda,

Kimgadir egilar, qilar iltijo.

"Rauf Parfi ijodi she'riyat, rassomlik va musiqa san'atining g'oyat muvaffaqiyatli sinteziga o'xshaydi. She'r ohangidan ma'no uqa oladigan o'quvchilar ancha kam. Holbuki, she'r ohangini ilg'ash orqali uning mazmunini chuqur his etamiz"[5,129]. Yuqoridaq misralarni o'qiganimizda, avvalo, ko'z oldimizda tabiatning latif tasviri jonlanadi. Bu tasvir o'quvchining qalbidagi hislarga bog'lanib ketadi va qalbda "tirk nafosat" ufuradi. Bunda she'riyat va rang tasvir semantizatsiyasi ro'y beradi.

Bu qadar go'zallik qaysi ochunda,

Bu qaysi kitobdir, kimning daftari,

Kimning alamidir qilich uchinda?

Qaltirab porlaydir bir chiroq g'arib,

Bir qushcha sayraydir ruhim ichinda,

Bir qushcha yig'laydir meni axtarib. (1963)

Bu qushcha balki shoirning "men"dir. Uning o'zligidir ehtimol. Rauf Parfi ijodidagi qush obrazini tadrijiy kuzatgan Olim Oltinbek uni shoir qalbidagi "shoirlik" deya xulosa qiladi. "Rauf Parfi sonetlarida lirik qahramon dard va iztirob kuychisi sifatida maydonga chiqadi. U hech qachon quruq maddohlik va tilyog'lamalik qilmaydi. Qalb kechinmalarining tug'yonli daqiqalarini mahorat bilan namoyish qiladi. Va bu jarayonda raufona qo'llanishlardan, original qahramonlar galeriyasidan foydalanadi. Badiiy adabiyotning, xususan, poeziyaning obrazlilik tendensiyasi R.Parfi she'riyati uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shoir qo'llagan timsollar o'zining betakrorligi, originalligi va modern ifodasi bilan she'rxonda o'zgacha taassurot qoldiradi"[7,130]. Biz shoirning sonetlarida so'zlarni qo'llash uslubi nostandard ekanligini ko'ramiz. Bu nostandardlik she'r mohiyatiga o'zgacha yo'nalish beradi va o'quvchining assotsiativ tafakkurida visual tasvirni jonlantiradi. "Rauf Parfi sonetlari ko'proq assotsiativ tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan. Assotsiatsiyalar sonetlarda metaforalar qo'llash, ramz-obrazlarga murojaat, kontrast usullardan foydalanish hisobiga vujudga keladi. Shoir sonetlarida jiddiy muammo qo'yiladi, kechinma assotsiativ fikrlash tarzi orqali tavsiflanadi. Falsafiy yo'nalishdagi sonetlarda komil inson rozlari, inson erki, millat taqdiriga qayg'urish, shoirning o'ziga xos olami, Vatan muqaddasligi, sevgi iztiroblari va hijron dardlari asosiy mavzu sanaladi"[7,137].

ADABIYOTSHUNOSLIK

Pedagogika fanlari doktori Qozoqboy Yo'ldoshev : "Rauf Parfi she'rlarining o'ziga xosligi shaxsiyatining betakrorligi natijasi edi. Shoiring bitganlarini maza qilib o'qib bo'lmashdi. Ular bilan tanishish chinakam mehnat edi va shu zahmat asnosida anglab yetilgan fikr yoki tuyilgan tuyg'u o'qirmanga aslo unutilmaydigan bo'lib o'rashib qolardi..."-, deb bildirgan fikri ham hozirgi qarashlarimizning isbotidir. "Rauf she'rlari haqida so'z ketganda, uning o'ziga xosligini ko'p gapisradilar. Darhaqiqat, undagi fikr va ifoda o'zgacharoq shaklda namoyon bo'ladi. Shoiring oz so'z bilan ko'p fikr anglatishga urinadi. Bu hol so'zning barcha ma'no va imkoniyatlarini ishga solishni talab qiladi. Natijada biz odatlangan grammatik qurilishlar buziladi, bizga notanish tamsil va tafsillar paydo bo'ladi. Bu yerda assotsiatsiya, biror so'z yoki holatning bamisoli zanjirli reaktsiya singari, tuyg'u yoxud fikrlar silsilasini yechib yuborishiga alohida ahamiyat beriladi"[8,42].

XULOSA

Biz Rauf Parfining ijodiga doir ko'plab ilmiy adabiyotlar, maqolalar, tashbehtar-u tahlillar bilan tanishar ekanmiz, shoiring ijodini tahlil etishga jazm etgan har bir adabiyotshunos o'z yondoshuvi doimo nimasi bilandir "yetarli" emasligini his etganiga ishonchimiz komil. Chunki shoiring erkin ruhini, uning isyonkor satrlarini mohiyat talabida to'liq tahlil etmoq imkonsizdir. Rauf Parfi o'z she'rlarida shunday vizual tasvirlarni yaratdiki, "unda (Rauf Parfida – B. F.) har bir fikrning o'z rangi bor, ohang, bo'yog'i bor. Fikr plastikasi rang va harakat plastikasi bilan qo'shilib ketadi"[9,455].

Xulosa qilib aytganimizda, Rauf Parfi O'zturk umrining har lahzasini she'r ichida yashab o'tdi. Shoiring oz ijodi bilan kimgargadir ibrat bo'lishni yoki kimgargadir malham bo'lishni maqsad qilmadi. U faqat yozdi... Balki bezovta ruhiga erkinlik bermoqni istadi, balki Shoh Mashrab kabi qalbidagi Yaratguvchining muhabbatini ifoda etmoqqa urindi...!

Shoiring o'zi shunday deydi: "Har bir odamning Allohga murojaat qiladigan pok bir makoni, joynamozi bo'lishi lozim. Oq qog'oz – shoiring joynamozi. Oq qog'oz bo'lmagan shoiring iymonidan ayrıldi, Allohnini unutadi. San'atning barcha turlari: musiqami, rassomlikmi, shoirlilikmi – barchasi Allohga munojot shaklidir. She'r yozish poklanish degani. Poklanishga doim tayyorman". O'ylaymizki, Rauf Parfi bitgan har bir she'r o'z mohiyati bilan o'quvchining qalbida oliy ishqqa darcha ochadi va bu darchadan kirgan muhabbat epkinlari uning ham ruhini poklaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqad Muxtor. Rauf Parfi. //Sharq yulduzi.1966. №1- bet 137.
2. G'aniyev I. Rauf Parfi O'zturk dunyosi. – T.: Muhamarrir, 2021 – bet 639.
3. Rahimjon Rahmat Adabiyotdan chiqish. - Toshkent.: Akademnashr, 2015 – bet 128 – 129.
4. Rahimjonov N. Daryo mavjulariga yozilmish g'azal. Jahon adabiyoti, 2011. №11- bet 150.
5. Yuldosheva U. Fikrlar tasviri. //So'z san'ati, 2021. №3 – bet 130-137.
6. Tojiyev X., Fayzullayeva O. Rauf Parfi ijodida sonnet. //Sharq yulduzi, 2016. №4 – bet 42.
7. Sodiqov B. Ko'zlardagi dunyo/O'zbek adabiy tanqidi. – Toshkent.: Turon-iqbol, 2011 – bet 455.
8. Qosimov B. Adabiy-tarixiy jarayon (3-jild). – T.: O'qituvchi, 2017- bet 57.
9. Fayzullayeva O. Hozirgi o'zbek she'riyatida sonnet (monografiya). - T.: Turon zamin ziyo, 2014 - bet 83.
10. Parfi R. Sakina (saylanma). – Toshkent.: Muhamarrir , 2013 – bet 34.(Parfi R. Sakina (selection)
11. Parfi R. Karvon yo'lli. – Toshkent.: G'afur G'ulom 1969 – bet 18. (Parfi R. Caravan Road)
12. Parfi R. She'rlar. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2016 – bet 43. (Parfi R. Poems)
13. Boyqobilov B. Sonetlar. Tashkent.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982 – bet 74. (Boyqobilov B. Sonnets)
14. Salomov G', Komilov N., Jo'rayev T. Sonetda yangratdim torimni. Toshkent.: G.G'ulom, 1984 – bet 52.
15. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1996 – bet 113.
16. Rahmonova S. O'zbek sonetlari: poetik struktura va badiiy obraz. Fil. fan. nomzod. ... diss. avtoref. Toshkent. – 2010
17. www.ziyouz.com/kutubxonasi.
18. www.kh-davron.uz.
19. Behzod Fazliddin. So'z saltanati. <https://kh-davron.uz>
20. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/rauf-parfi-uchliklar.html>

(Taqrizchi: A.Sabirdinov – Filologiya fanlari doktori)